

Buxoro viloyati transport boshqarmasi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Buxoro viloyati transport boshqarmasining (keyingi o'rinlarda - Boshqarma) maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibi, shuningdek, uning rahbarlari funksional vazifalari va mas'uliyatini belgilaydi.

2. Boshqarma Buxoro viloyatida avtomobil, temir yo'l, havo, daryo va elektr transporti va yo'l xo'jaligini (keyingi o'rinlarda - transport va yo'l xo'jaligi) rivojlantirish borasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, normativ-huquqiy tartibga solish, hududda yo'lovchi va yuk tashish sohasida jamoat transporti korxonalari faoliyatini muvofiqlashtirish, sohani takomillashtirish yuzasidan norma ijodkorligi faoliyatini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining hududiy boshqaruv organi hisoblanadi.

3. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligiga (keyingi o'rinlarda - Vazirlik) bo'ysunadi.

4. Boshqarma to'g'risidagi nizomni tasdiqlash, unga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish Transport vaziri tomonidan amalga oshiriladi.

5. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlikning buyruqlariga, boshqa qonunchilik hujjatlariga hamda mazkur nizomga amal qiladi.

6. Boshqarma o'z faoliyatini, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

7. Boshqarma yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan, davlat tilida Vazirlik va o'zining nomi ko'rsatilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisob varaqlariga, bank hisob raqamlariga, jumladan xorijiy valyutadagi hisob raqamlarga egadir.

8. Boshqarmaning rasmiy nomi:

a) davlat tilida:

to'liq nomi — Buxoro viloyati transport boshqarmasi;

qisqartirilgani — Transport boshqarmasi;

b) ingliz tilida:

to'liq nomi — Department of transport of Bukhara region;

qisqartirilgani — Department of transport;

d) rus tilida:

to'liq nomi — Управление транспорта Бухарской области;

qisqartirilgani — Управление транспорта.

9. Boshqarma joylashgan joy: O'zbekiston Respublikasi, 105011, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Oqmachit ko'chasi, 1-uy.

2-bob. Boshqarmaning vazifalari va funksiyalari

10. Quyidagilar Boshqarmaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Buxoro viloyati hududida Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni samarali bajarish;

transport va yo'l xo'jaligi sohasida qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish.

11. Boshqarma quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

tashuvlar, transport obyektlari xavfsizligini tashkil etish va ta'minlash yuzasidan yangi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va mavjudlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritadi hamda boshqaruv organlari va xo'jalik subyektlari tomonidan ularga rioya etilishini nazorat qiladi;

xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritadi;

transport va yo'l xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlar va konsepsiyalarni, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

tegishliligi bo'yicha shahar, shahar atrofi va shaharlararo-viloyat ichki yo'lovchi tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni belgilangan tartibda tashkil etadi;

avtotashuvlar, avtovokzal, avtostansiyalar faoliyatini boshqarish va dispetcherlik nazorati o'rnatilishini tashkil etadi;

mahalliy davlat hokimiyati organlari va aholining transport va yo'l xo'jaligi faoliyatiga tegishli takliflarini ko'rib chiqadi, ularni umumlashtirgan holda Vazirlik markaziy apparatiga taqdim etadi;

yo'lovchilar yo'nalishlaridagi to'xtash bekatlarini xatlovdan o'tkazadi, Vazirlik markaziy apparatiga to'xtash bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash yuzasidan takliflar kiritadi;

avtomobil transportida shahar, shahar atrofi, shaharlararo yo'lovchilar tashishlarni litsenziyalashni, litsenziya/litsenziya varaqalarini rasmiylashtirish uchun kelib tushgan buyurtmalarni ko'rib chiqadi;

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasidan yo'lovchilar avtovokzallari, avtostansiyalar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tasarrufida bo'lgan umumiy foydalanishdagi yo'lovchilar

yoʻnalishlaridagi toʻxtash bekatlarini qurish, rekonstruksiya qilish va taʼmirlash ishlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan pul mablagʻlaridan maqsadli foydalanilganligini, Vazirlik va uning idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini moddiy ragʻbatlantirishga yoʻnaltirilgan mablagʻlarning sarflanishini nazorat qiladi;

muntazam shahar avtobus yoʻnalishlarida cheklangan tariflarda yoʻlovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida:

yoʻnalishlarni belgilash, ularning pasporti va talablarini ishlab chiqish, iqtisodiyot va moliya organlari bilan birgalikda yoʻnalishlarning boshlangʻich narxini aniqlash;

davlat budjeti hisobidan ajratilishi lozim boʻlgan mablagʻlar hisob-kitobini shakllantirish va mahalliy budjetlar parametrlarida nazarda tutish uchun buyurtmanomalar berish;

yoʻnalishlarni belgilangan tartibda tenderlar orqali tashuvchilarga biriktirish va tender gʻoliblari bilan hokimlik nomidan brutto-shartnoma tuzish;

hisobot davrida tashuvchilar tomonidan yoʻnalish koʻrsatkichlari bajarilishini monitoring qilish, bajarilgan ish hajmi va sifatini aniqlash hamda baholash;

yoʻlkira haqi toʻlanishini, tashuvchi tomonidan bajarilgan ishlar hajmi va xizmatlar sifatini nazorat qilish;

bajarilgan ish hajmi va sifat mezonlari asosida tashuvchiga brutto-shartnoma shartlariga asosan toʻlovlarni amalga oshirish;

hisobot shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

mahalliy hokimliklar huzurida tashkil etilgan tashuvchilar tomonidan shahar atrofi va viloyat ichidagi shaharlararo norentabel avtobus yoʻnalishlaridan koʻriladigan zararlarni qoplash boʻyicha hududiy komissiyalarga oʻz xulosalarini kiritadi;

bekatlar, toʻxtab oʻtish va dispetcherlik manzillarini, boshqa obyektlarni joylashtirish, qurish va obodonlashtirish masalalarini hal etish yuzasidan mahalliy hokimliklarga takliflar kiritadi;

harakatdagi tarkib umumiy foydalanishdagi temir yoʻllarga chiqishi uchun ruxsatnomalarni oʻz muddatida koʻrib chiqadi va ruxsatnomalar beradi;

aviatsiya va temir yoʻl transportini rivojlantirish maqsadida muammolar oʻrganilishini tashkil etadi va oʻrganish natijalari asosida aniqlangan muammolarni hal etish boʻyicha Vazirlikka takliflar kiritadi;

aviatsiya infratuzilmasi (aeroport, aerodrom, uchish-qoʻnish yoʻlagi) bilan bogʻliq investitsiyalar, qurilish, yoʻlovchi va yuk tashishni tashkil etish boʻyicha Vazirlikka takliflar kiritadi.

12. Boshqarma qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Boshqarmaning huquqlari hamda javobgarligi

13. Boshqarma oʻziga yuklangan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan ular vakolatiga tegishli masalalarni hal etish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni belgilangan tartibda bepul so‘rash va olish;

davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlariga vakolatiga tegishli masalalar bo‘yicha takliflarni ko‘rib chiqish uchun kiritish.

14. Boshqarma quyidagilar uchun javobgar:

Boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning samarali bajarilishini ta‘minlash;

Vazirlikka kiritilayotgan hujjatlar va takliflar, shuningdek, qabul qilinayotgan qarorlar loyihalarini sifatli tayyorlash;

viloyat transport va yo‘l xo‘jaligi sohasini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni aniqlangan muammolarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish hamda umumlashtirish asosida tayyorlash;

viloyatda transport va yo‘l xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, muammoli masalalarni hal etish bo‘yicha dasturlar, chora-tadbirlar rejalari, “yo‘l xaritalari” va boshqa dasturiy hujjatlar ijrosini samarali ta‘minlash;

harakatdagi tarkib umumiy foydalanishdagi temir yo‘llarga chiqishi uchun hujjatlarni o‘z muddatida ko‘rib chiqish, ruxsatnomalar berilishi yoki asoslangan tarzda rad etilishini ta‘minlash;

belgilangan tartibda berilgan litsenziyalar va ruxsatnoma hujjatlarining amal qilish muddatini to‘xtatib turish, to‘xtatish va bekor qilish choralarini ko‘rish;

fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularga rioya etilishini ta‘minlash uchun mas‘uldir.

4-bob. Boshqarma boshlig‘ining asosiy funksional vazifalari

15. Quyidagilar boshqarma boshlig‘ining asosiy funksional vazifalari hisoblanadi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etish;

Boshqarma faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish, unga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari, Vazirlikning buyruqlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan yuklangan vazifalar va funksiyalar bajarilishini tashkil etish;

Boshqarmaning faoliyati bilan bog‘liq prognoz ko‘rsatkichlarga erishishni ta‘minlash bo‘yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va topshiriqlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi, shuningdek ijro intizomi mustahkamlanishi uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchilarining, Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi

hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligi to‘g‘risida” 2017-yil 11-apreldagi PQ-2881-son, “Davlat organlari tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 5-oktabrdagi PQ-3962-son qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 1999-yil 12-yanvardagi 12-son qaroriga muvofiq Boshqarmada ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha kompleks amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish, Boshqarma xodimlari tomonidan topshiriqlarning o‘z vaqtida va sifatli bajarilishida ularning shaxsiy mas‘uliyatini oshirish bo‘yicha choralar ko‘rish;

Vazirlik Hay‘ati qarorlari, Vazirlik buyruqlari va topshiriqlarining o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash;

mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan avtomobil, temir yo‘l, havo va daryo transporti sohasiga tegishli masalalar bo‘yicha hamkorlik qilish;

o‘z o‘rinbosarining vakolatlarini belgilash, boshqarmaning boshqa mansabdor shaxslari vakolatlarini belgilash, o‘z o‘rinbosari va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan Boshqarma faoliyatining alohida uchastkalariga rahbarlik qilish uchun shaxsiy mas‘uliyat darajasini belgilash;

Boshqarma faoliyatini rejalashtirishni tashkil etish, boshqarma va o‘z o‘rinbosarining har choraklik ish rejalarini tasdiqlash, ular ijrosi holatini nazorat qilib borish;

Boshqarmada kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishni tashkil etish, ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, Boshqarma kadrlar zaxirasini shakllantirish;

Vazirlik apparati nomenklaturasiga kiradigan bo‘sh lavozimlarga taklif etilgan kadrlarning, shuningdek, boshqarmaga ishga qabul qilinadigan boshqa kadrlarning professionalligi, o‘z ishini bilishi, amaliy ish tajribasi, yuqori ishchanlik darajasi va ma‘naviy-axloqiy sifatleri kafolatlanganligini ta‘minlash;

Boshqarma xodimlari, o‘z o‘rinbosarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etish, shu jumladan ularning egallab turgan lavozimida

qolish-qolmasligi maqsadga muvofiqligi masalalarini ko‘rib chiqish, ularning shaxsiy mas‘uliyatini oshirish yuzasidan tizimli choralarni amalga oshirish;

Boshqarma xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishi ta‘minlanishini nazorat qilish;

“Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq Boshqarma tizimida korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko‘rish, shuningdek, huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish yo‘li bilan ularni sodir etishga imkon yaratuvchi omillarni aniqlash, tahlil qilish, sabab va sharoitlarini bartaraf etish;

prognoz ko'rsatkichlar bajarilishini muntazam tahlil qilib borish va qayd etilgan ko'rsatkichlarga Boshqarma tomonidan so'zsiz erishishni ta'minlashga yo'naltirilgan qo'shimcha choralarni ko'rish yuzasidan takliflarni ko'rib chiqish uchun vazirning mutasaddilik qiladigan o'rinbosarlariga kiritish;

Boshqarma xodimlari faoliyatining samaradorligi va natijadorligini doimiy tanqidiy tahlil qilib borish, yig'ilishlarda ularning shaxsiy hisobotlarini eshitib borish, ularning yakunlari bo'yicha zarur choralar ko'rish;

Boshqarma faoliyati masalalari bo'yicha qonunchilikni takomillashtirishga doir, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligi, sifati va ulardan foydalanish darajasini oshirish bo'yicha takliflarni Vazirlik rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun kiritish;

Boshqarma bo'limlari va boshqarma tarkibiga kiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish, aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, shaxsiy qabullarni, shu jumladan, "Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida hamda Vazirlikda jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi tegishli hujjatlarda belgilangan muddatlarda va tartibda jismoniy va yuridik shaxslar vakillarining sayyor qabullarini muntazam o'tkazish yuzasidan samarali ishlarni tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari bilan samarali hamkorlik qilish, ular faoliyatida faol ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan kelib tushadigan jismoniy va yuridik shaxslarning kelib tushadigan murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqish;

Boshqarma xodimlariga mukofot pullari, lavozim maoshiga qo'shimchalar, moddiy yordam puli to'lash, mukofotlash, rag'batlantirish va ularga nisbatan intizomiy chora ko'rish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

davlat siri va maxfiy axborotlar toifasiga kiruvchi ma'lumotlar bilan ishlashda qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash;

Sudlarda va davlat tashkilotlarida Boshqarmaning mulkiy hamda boshqa manfaatlarini himoya qilish.

5-bob. Boshqarma boshlig'ining javobgarligi

16. Boshqarma boshlig'i:

Boshqarmaga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi;

Boshqarmaning mazkur Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan javobgarlik sohalari;

Mazkur Nizomning 15-bandida belgilangan o'z funksional vazifalarining sifatli bajarilishi uchun shaxsan javobgardir.

17. Boshqarma boshlig'i vaqtincha ishda bo'lmagan davrda (ta'tilda, kasal bo'lganda va b.h.) boshliq o'rinbosari yoxud Transport tashuvlarini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i uning vazifa va funksiyalarini bajaradi.

6-bob. Boshqarma faoliyatini tashkil etish

1-§. Boshqarma rahbariyati

18. Boshqarma boshlig'i Buxoro viloyati hokimi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Transport vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

19. Boshqarma boshlig'i o'z maqomiga ko'ra Buxoro viloyati hokimi o'rinbosariga tenglashtiriladi.

20. Boshqarmaning boshqa xodimlari belgilangan tartibda boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

2-§. Buxoro viloyati transport boshqarmasining Vazirlik markaziy apparati bilan o'zaro hamkorlik qilish tartibi

21. Boshqarmaning Vazirlik markaziy apparati bilan o'zaro hamkorligi markaziy apparatning tarkibiy bo'linmalari rahbarlari tomonidan ta'minlanadi.

22. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari Boshqarma bilan o'z faoliyati yo'nalishlari bo'yicha o'zaro hamkorlikni amalga oshirishda:

topshiriqlarni Boshqarmaga yetkazadi hamda ularning ijrosini nazorat qilib boradi;

Boshqarmaga bevosita tarkibiy bo'linmalar faoliyati masalalari bo'yicha so'rov jo'natadi va ularning ijrosini nazorat qilib boradi;

Boshqarma faoliyatini tekshiradi va o'rganadi, amaliyotini umumlashtiradi, takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

Boshqarma faoliyatining tashkil etilishi va natijalari to'g'risida hisobot va axborot materiallari, statistik va boshqa ma'lumotlarni o'rganishni tashkil etadi;

Boshqarma ish rejalarini tahlil qiladi, ularning faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

Boshqarmadan kelgan takliflarni ko'rib chiqadi;

Boshqarmaning normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlashda ishtirok etishini tashkil etadi, ular tomonidan qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan kelib tushgan takliflarni ko'rib chiqadi.

23. Boshqarma Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari bilan hamkorlik qiladi, shu jumladan:

Vazirlik rahbariyati topshiriqlarining ijrosi to'g'risida axborot beradi;

faoliyatning belgilangan sohasidagi qonunchilik hujjatlari ijrochi bo'yicha markaziy apparatga ma'lumot taqdim etadi;

Boshqarma faoliyatini tekshirish va o'rganish natijasida ishda aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarning bartaraf etilganligi natijalari haqida Vazirlikka axborot beradi;

Vazirlik markaziy apparatiga belgilangan tartibda va muddatda o'z faoliyati natijalari to'g'risida hisobot taqdim etadi;

kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan hamkorlik natijalari haqida axborot beradi;

vakolatli organlar tomonidan o'z faoliyatini tekshirish natijalari haqida axborot beradi.

24. Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va Boshqarmaning o'zaro hamkorligi jarayoni davomida yuzaga keladigan kelishmovchiliklar Vazir topshirig'iga binoan uning tegishli o'rinbosari tomonidan ko'rib chiqiladi. Ko'rib chiqilgandan so'ng ham kelishmovchiliklar hal bo'lmagan taqdirda, ular bo'yicha qaror bevosita Vazir tomonidan qabul qilinadi.

3-§. Boshqarmaning davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi tartibi

25. Boshqarma o'z vakolatlari doirasida davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

Boshqarma kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish sektorlari bilan tegishli hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish va amalga oshirishda yaqindan hamkorlik qiladi.

26. Boshqarma faoliyati Vazirlik tomonidan nazorat qilinadi.

7-bob. Boshqarma faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlari

27. Boshqarma faoliyati muntazam baholab boriladi.

28. Boshqarma faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash boshqarma faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash mezonlari va ishchi indikatorlariga asoslanadi.

29. Boshqarma faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash yakunlari bo'yicha:

Boshqarma rahbarlari va xodimlarini rag'batlantirish (mukofotlash) yoki ularga nisbatan intizomiy jazo choralari;

Boshqarma faoliyatida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va uning faoliyatini yanada takomillashtirish choralari ko'riladi.

30. Boshqarma faoliyati samaradorligi va natijadorligini baholash tartibi va uslubi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

8-bob. Boshqarma faoliyatini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash, uning xodimlari mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish

31. Boshqarmani moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, Vazirlik huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

32. Boshqarma xodimlarining ish haqi lavozim maoshi, rag'batlantirishlar, qo'shimcha to'lovlar, ustamalar va boshqa to'lovlardan iborat.

Boshqarma xodimlarining lavozim maoshi Yagona tarif setkasining tasdiqlangan razryadlari bo'yicha belgilanadi.

33. Vazirlik Boshqarma xodimlarining lavozim maoshlariga O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga yo'naltiriladigan mablag'lar miqdori bilan Boshqarma ta'minoti uchun byudjetdan ajratiladigan mablag'lar miqdori o'rtasida yuzaga keladigan tafovut hisobiga 2 barobargacha o'sib boruvchi koeffitsientni qo'llashga haqli.

Boshqarma xodimlarini qo'shimcha moddiy rag'batlantirish, Vazirlik huzuridagi Transport va logistikani rivojlantirish jamg'armasi hisobidan ish haqi fondiga nisbatan 200 foizgacha miqdorda amalga oshiriladi.

Boshqarma xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat boshqaruvi hududiy organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 9-yanvardagi PQ-2722-son qarori 1-bandida nazarda tutilgan mehnatga haq to'lash shartlari tatbiq etiladi.

34. Boshqarma xodimlari sonining qisqartirilishi va bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi sababli bo'shaydigan mehnatga haq to'lash jamg'armasi mablag'lari boshqarma xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun yo'naltiriladi.

35. Boshqarma xodimlariga ish haqini va rag'batlantirishlarni to'lash shartlari Boshqarma xodimlariga ish haqi va qo'shimcha rag'batlantirishni to'lash tartibi bilan belgilanadi.

9-bob. Boshqarma hisobdorligi

36. Boshqarma o'z faoliyati to'g'risida Vazirlikka hisobot beradi.

37. Vazirlik rahbariyati yuklangan vazifalarning Boshqarma tomonidan samarali bajarilishi bo'yicha doimiy monitoring olib boradi, Boshqarma faoliyati samaradorligini xolisona baholaydi.

38. Monitoring va baholash natijalariga ko'ra boshqarmaning alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlarini rag'batlantirish choralari ko'riladi, jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan esa javobgarlik choralari, egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha jazo qo'llaniladi.

10-bob. Yakunlovchi qoida

39. Boshqarma qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi va tugatiladi.